

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Volume 02. Issue 01. January 2025

**МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA SAN'AT MARKAZLARI
ORQALI IJODKORLIK QOBILIYATLARINI SHAKILLANTIRISH (KATTA
GURUHLAR MISOLIDA)**

Xudoyberdiyeva Feruza

Jizzax davlat pedagogika universiteti stajyor o'qituvchisi

Qulmurodova Zarnigor

JDPU Maktabgacha ta'lism yo'nalishi 1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish yo'llari, maktabgacha ta'lim tashkilotida markazlar faoliyati, san'at markazi orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik qobiliyatini shakillantirish usullari haqida so'z borgan.

KALIT SO'ZLAR: maktabgacha ta'lim, san'at markazi, pedagog, innovatsiya, faoliyat, takomillashtirish, texnologiya, malaka, jarayon, zamonaviy, rivojlanish, usullar.

АННОТАЦИЯ: В данной статье говорится о путях совершенствования системы дошкольного образования, деятельности центров по организации дошкольного образования, методах формирования творческих способностей детей дошкольного возраста через центр творчества

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: дошкольное образование, центр искусств, педагог, инновация, деятельность, образование, технология, компетентность, процесс, современный, техника, методы.

ABSTRACT: This article talks about the ways to improve the preschool education system, the activity of centers in the organization of preschool education, the methods of forming creativity in preschool children through the art center.

KEYWORDS: preschool education, art center, pedagogue, innovation, activity, improvement, technology, competence, process, modern, development, methods

KIRISH

Bugungi kunda ta‘lim sohasida turli xususiyatdagi, yo’nalishdagi va ahamiyatdagi nihoyatda ko’p innovatsiyalar mavjud, katta yoki kichik ko’lamli davlat islohotlari o’tkaziladi, ta‘limning tashkil etilishiga, mazmuniga, uslubiyotiga, texnologiyasiga yangiliklar kiritiladi. Maktabgacha ta‘lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiya bu bolalarni vositalar yordamida ta‘lim materiallarini o’rganish orqali nutqini rivojlantirish, o’z fikr erkin bayon eta olish, o’zaro muloqot, tevarak-atrof bilan tanishish jarayonini yangicha talqin etishdir. Zamonaviy maktabgacha ta‘lim tashkilotlari – bola o’z rivojlanishi uchun eng ahamiyatli sohalarda va jihatlarda kattalar va tengdoshlar bilan keng hissiy-amaliy o’zaro muomala tajribasini oladigan joydir, maktabgacha ta‘lim muassasalarida bola o’z ehtiyojlari, qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq holda individual rivojlanishiga bo’lgan huquqini shu jarayon uchun tashkiliy-pedagogik sharoitlar yaratilgan holda amalga oshiradi; pedagog o_zining kasbiy va shaxsiyat fazilatlarini rivojlantiradi, rahbar, bolalar va pedagoglar faoliyatining muvaffaqiyatli bo_lishini ta‘minlaydi.

ASOSIY QISIM

“Ilk qadam” davlat o’quv dasturi asosida maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida quyidagi rivojlanish markazlari faoliyati yuritilishi nazarda tutiladi:

- Qurilish va konstruksiyalash markazi
- Syujet-rolli o_yinlar va dramalashtirish markazi
- Til va nutq
- Ilm-fan va tabiat markazi
- San‘at markazi

Rivojlanish markazlari bolalarga o’zlarining shaxsiy ko’nikmalari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta‘lim-tarbiya jarayonini mustaqil individuallashtirish imkoniyatini beradi. Tarbiyachi-pedagoglar rivojlanish

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 01. January 2025

markazlarida bolalarning yordamchilari rolini o'ynaydilar, mashg'ulotlar olib boriladigan joyda imkoniyatlar kengligini ta'min etadilar va har bir bola individual rivojlanishi darajasini egallay olgan xolda faoliyat turlarini rejalashtiradilar. Kun tartibi turli mashg'ulot turlarini o'zida qamrab olishi lozim: kichik guruhlarda bирgalikda va tarbiyachi hamkorligida yakka tartibda (individual) yoki mustaqil (ular tomonidan tanlagan mashg'ulotlarga vaqt ajratish kerak, chunki bolalar ongli tanlab olishni o'rganadilar, o'z qiziqish va qobiliyatlarini amalga oshiradilar). Bolalarning o'z tanlovlарini amalga - oshirishi, muammolarni hal etishi, atrofdagi kishilar bilan bирgalikda harakat qilishi, individual maqsad qo'yishi va unga erishishni bilishlari lozim. Faollik markazlarini tashkil etish va rahbarlik guruhlardagi markazlar shunday tarzda yaratilishi kerakki, u bolaga mustaqil tanlash imkonini bersin.

Rivojlantiruvchi markazlarni tashkil qilishdan ko`zlangan maqsad bola o'sishini kuchli ta'minlash, samarali ta`lim berish, mакtabga jalb etish va shunga mos shart-sharoit yaratish hisoblanadi. Maktabgacha ta`limda rivojlantiruvchi markazlar ta`lim, rivojlantiruvchi, o`qitish, rag`batlantiruvchi, uyushgan , kommunikativ kabi o'z tizimini yuksaltiruvchi funksiyalarni bajarishi kerak.Bu funksiyalar eng muhim bola mustaqilligini, erkin fikrlash, bolalar va kattalar orasidagi o`zaro munosabatlар jarayonini rivojlantirish ustida ishlashni talab etadi. Bunday markazlarda markazlarning o`zaro dizayni, estetikasi, bolalar uchun jozibali, qiziqish uyg`otadigan bo`lishi kerak. Jihozlar ham bola yoshiga mos, xavfsiz, didaktik talablarga mos holda tashkil etilishi lozim

San'at markazi o'z ichiga asosan rasm, applikatsiya, loy ishini oladi. Markazlarning asosiy maqsadi bolalarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni go'zallik bilan oshno qilish, mayda qo'l matorikasini rivojlantirish orqali nutqni rivojlantirish. Bola ranglarni tanlashga, ularni o'z o'rnida ishlatishga o'rganadi. Tevarak atrofdagi narsalarni ranglar orqali anglaydi, ular orqali tushunadi. Bu

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 01. January 2025

markazda origami usulida qurish-yasash ishlari ham olib borilishi mumkun. Markazdagi barcha faoliyatni baravar qo'yish maqsadga muvofiq. Masalan "uycha" mavzusini bola xoxlasin aplikatsiya usulida, xoxlasin rasm chizish orqali, yoki loydan uy qursin. Markazda bola uchun shunday imkoniyat yaratish kerakki u bekor qolmasin. Biri bo'lmasa ikkinchisidan foydalansin. Markazga taklif etilayotganda har gal "Bugun san'at markazimizda manabu mavzuda ishlaymiz" – deb eslatish lozim. San'at markazi bolalar uchun eng qiziq markaz hisoblanadi. Chunki ular bu markazda mustaqil faoliyat olib borishadi. Maktabgacha ta'limni standartlashtirish sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida ahamiyat beriladi. Ko'pchilik samarali vosita bolalarning ijodiy fikrlash va tasavvurlarini rivojlantirish uchun samarali faoliyat quyidagilarga yordam beradi: - cheksiz fikrlash qobiliyatini rivojlantirish; - ijodiy faoliyatga tayyorlik; - o'z faoliyatining ijodiy mahsulotlarini yaratish qobiliyati; - dunyoga estetik munosabatni shakllantirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun quyidagilar zarur: shart-sharoitlarni yaratish: Ijodkorlik uchun zarur materiallarni tayyorlash va ular bilan o'ynash uchun vaqt topish. Bolada tashabbus ko'rsatish istagini uyg'otish, uning atrofidagi dunyoga qiziqishni rivojlantirish. Kutilmagan g'oyalar va yechimlarga sabrli bo'lish. Bolani ijodiy izlanish jarayonida qo'llab-quvvatlash. Birgalikda samarali faoliyatga va badiiy materiallar bilan tajriba o'tkazishga qiziqish bildiring. San'at markazi bolalarning o'z ijodiy qibiliyatlarini sinovdan o'tkazish va amalga oshirishga rag'batlantiradi, ularga yangi materiallar bilan tanishishdan qoniqish olish imkoniyatlarini beradi, bolalarning sezish qobiliyatini boyitadi. Bu yerda bo'yoq, qog'oz, qaychi, bo'rchalar, qalamlar, gazlama bo'laklari va kesish hamda yelimlash uchun turli qiyqimlar mavjud. Shuningdek, tabiiy materiallar – yog'och, barg, qumtuproqni ham qo'shib qo'yish foydadan xoli emas. Markazdagi mashg'ulotlar ijodiy qobiliyat, so'z orqali va so'zsiz muloqot, umumiylar va nozik harakatlanish, aqliy

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 01. January 2025

qobiliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Pedagoglarning vazifasi – bolalarning muloqotga kirishishga bo'lgan qiziquvchanligini rag'batlantiruvchi muhitni yaratish va bolalarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga qarab, o'z vaqtida kerakli sharoitlarni moslashtirgan xamda ularni kuzatishdan iborat. Individual yoki kichik guruhlar uchun topshiriqlar ota-onalar bilan suhbatlashgandan so'ng, qaysidir ko'nikmalarga alohida e'tibor berish uchun ishlab chiqiladi.

Mantiqiy o'yin: Raqamli moychechak Kerak bo'ladigan jihozlar: A4 formatdagi oq qog'oz, flamaster, rangli stiker qalamchalari. Oq qog'ozga flamaster orqali moychechak tanasini chizib olamiz va o'rtasiga istaganizcha sonlarni yozamiz. Alohida rangli stiker qalamchalariga shu sonlarni biron belgilar yordamida joylashtiramiz. Farzandingizdan aynan shu rangli stikerlar orqali moychechak yaproqlarini shakllantirishini so'rang (belgilar va sonlar mos kelgan holda)

Rasm chizamiz: Barmoqlarimiz bilan chizamiz. Kerak bo'ladigan jihozlar: A4 formatdagi oq qog'oz, rangli bo'yoqlar, flamaster. Kerakli rang tanlanib uni barmoqlarimizga botiramiz va qog'ozga bosib tushiramiz. Tayyor shakllarga flamaster yordamida ishlov beramiz. Har bir tarbiyalanuvchining ishlari ularning ko'zi tushadigan joyga ilib quyiladi. Bolalar har safar o'zлari tayyorlagan ishni ko'rib xursand bo'ladilar va keyingi mashg'ulotlar jarayonida ham turtki bo'ladi. Shu asosda ularning ijodkorlik qobiliyatları shakillanadi.

XULOSA

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o`zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o'z bilimini mustaqil ravishda to`ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o`rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan rivojlantiruvchi markaz faoliyatlarida bolalarga - muammolarni yecha

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 01. January 2025

olish,- ijodiy, tafakkur va ixtirochilik imkoniyatlarini namoyon etish, odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-olam haqidagi g`amxo`rlik qilish kabilar o`rgatib boriladi. Oqilona tashkil etilgan sog`lom ijtimoiy-ma‘naviy muhit bolalarda izlanishga bo`lgan muhabbatlarini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYAOTLAR

1. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. -T.: 2022 yil.
2. Sodiqova SH.A. Maktabgacha ta'linda markazlar faoliyati va uslubiyoti. T.: 2022yil.
3. O_Q.Tolipov, M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.-T.: «Fan»2006 yil, 298b.
4. Egamnazarova Sh. M. —Tarbiyaviy ishlar metodikasi Ilim ziyo T.: 2016y.
5. X.Meliyev, O.Jamoliddinova, K.Rizqulova. Tarbiyachining kasbiy komponenti va mahorati. T : 2021-yil
6. Sh. Sodiqova Maktabgacha pedagogika Toshkent 2019 y
7. G“.I.Muxamedov Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija Xalq so“zi 15.02.2019
8. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta“lim innovatsion klasteri (O“zbekiston ta’lim tizimi misolida) Academic research in educational sciences 1/4 2020 537-547-bet

**Research Science and
Innovation House**